



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 18 iyul

№ 1808

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashida idoraviy aloqa markazi “Ishonch telefoni” faoliyatini tashkil etish Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-11-son Farmoniga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashida idoraviy aloqa markazi “Ishonch telefoni” faoliyatini tashkil etish Reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Sudyalar oliy kengashining Sudyalar daxlsizligini ta’minlash va korrupsiyani oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi (T.Buvayev) ishonch telefoniga kelib tushgan murojaatlar tahlilini qilib borsin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Sudyalar oliy kengashi raisining o‘rinbosari A.Jalilov zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



SY25121862

X.Yodgorov

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashida idoraviy aloqa markazi
“Ishonch telefoni” faoliyatini tashkil etish
REGLAMENTI**

Mazkur Reglament O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashida (keyingi o‘rinlarda Kengash deb ataladi) mavjud 1190 yoki 71 200-26-00 raqamli “Ishonch telefoni”ga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va murojaat etuvchiga javob yo‘llash tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida ko‘rsatilgan vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning sudyalardan Sudyalar odobi kodeksi talablariga rioya etilishi masalalariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqish, mazkur murojaatlarning o‘z vaqtida, to‘liq va qonun talablariga qat’iy rioya etgan holda ko‘rib chiqilishini tashkil etish va nazorat qilish, bu borada tezkor axborot almashinuvini ta’minlash orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlash.

2. “Ishonch telefoni” raqamlari joylardagi jismoniy va yuridik shaxslarning e’tiboriga keng miqyosda yetkazilishini ta’minlash maqsadida, ushbu ma’lumotlar sud organlarida tashkil etilgan ko‘rgazmali stendlarda joylashtiriladi, shuningdek bu haqda Kengash rasmiy veb-saytida e’lon joylashtiriladi.

3. “Ishonch telefoni” orqali jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni har tomonlama puxta ko‘rib chiqish, shuningdek zarur hollarda kelib tushgan muammolarni tezkor hal etish choralari ko‘riladi.

4. “Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlar O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) talablariga rioya qilgan holda, ushbu Reglament asosida ko‘rib chiqiladi.

II. “Ishonch telefoni” orqali kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va ularni ko‘rib chiqish

5. “Ishonch telefoni” orqali murojaatlar ish kunlari (dam olish va bayram kunlaridan tashqari) soat **09-00 dan 18-00 ga** (13-00~14-00 tushlik) qadar qabul qilinadi.

6. Kengashda “Ishonch telefoni” orqali kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek ushbu murojaatlar bilan ish yuritishni tashkil etish, Kengash xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

7. “Ishonch telefoni” orqali kelib tushgan murojaatlar bilan ish yuritishni tartibli tashkil etish Kengash raisining o‘rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

8. “Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlarni qabul qiluvchi mas‘ul xodim “operator” hisoblanadi, hamda o‘zini tanishtirganda “operator” shartli raqamini, hamda u bilan o‘tkazilayotgan suhbat yozib olinayotganligini murojaat qiluvchiga yetkazadi. Mas‘ul xodim shaxsiga oid ma‘lumotlar oshkor qilinmaydi.

9. “Operator” qo‘ng‘iroq qilgan shaxsni qasddan yolg‘on ma‘lumot taqdim etilishi qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘lishi haqida ogohlantiradi hamda Qonunning 6-moddasi talablari tushuntirgan holda murojaat qiluvchi haqidagi ma‘lumotlarni yozib oladi.

10. “Operator” jismoniy va yuridik shaxslarning faqat **sudyalar tomonidan Sudyalar odobi kodeksi talablariga rioya etilishi masalalariga doir murojaatlarni** og‘zaki murojaat sifatida yozib oladi hamda murojaatni ushbu Reglamentning 1-ilovasida keltirilgan shaklda rasmiylashtiradi. Murojaatchiga murojaat raqamini ma‘lum qiladi.

11. “Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlar Devonxona orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

12. Murojaat Kengash vakolatiga taalluqli bo‘lmasa, murojaat Qonunning 21-moddasiga asosan murojaatlar ularda qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘z vakolati doirasiga kiradigan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga bevosita yoxud bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga berilishi hamda Qonunning 29-moddasiga asosan belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar ko‘rib chiqilmasligi tushuntiriladi.

13. Bir shaxsning aynan bir masala bo‘yicha oldingi murojaatiga javob berilmayotganligi haqidagi murojaati agar uni qonunda belgilangan ko‘rib chiqish muddati o‘tmagan bo‘lsa bu haqda muallifga tushuntiriladi.

14. “Operator” tomonidan Kengash raisi, o‘rinbosari yoki a‘zolari qabuli bo‘yicha murojaatlar yuzasidan tushuntirish va ma‘lumot beriladi. Onlayn qabullar bo‘yicha murojaatlar yozib olinadi.

15. Kengash javob xatidan norozilik bilan bog‘liq murojaatlar yuzasidan “Operator” tomonidan murojaatchiga Kengash qabuliga kelish va murojaati yuzasidan qo‘shimcha ma‘lumotlarni taqdim qilish huquqi tushuntiriladi.

16. “Operator” boshqa murojaatchilarning uzoq muddat kutib qolishini oldini olish hamda sifatli xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash maqsadida murojaatchining Kengash vakolatiga taalluqli bo‘lmagan masalalar bo‘yicha suhbatini bo‘lishi hamda Kengash vakolatlari doirasida murojaatini bayon qilishini so‘rashi mumkin.

17. “Operator” tomonidan murojaat mualliflariga huquqiy maslahat berish hamda boshqa masalalar bo‘yicha suhbatlashish ta‘qiqlanadi.

19. Ro‘yxatga olingan murojaatlar kelib tushgan paytidan boshlab bir ish kunidan kechikmay (dam olish va bayray kunlaridan tashqari) Kengash raisiga yoki uning o‘rinbosariga kiritiladi, u mas‘ul ijrochini belgilagan holda murojaatni ko‘rib chiqish bo‘yicha rezolutsiya (ustxat) qo‘yadi.

20. Murojaat Qonunning 28-moddasida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqiladi va murojaat muallifiga javob xati shaxsan yoki pochta(elektron) orqali yuboriladi.

21. Muallif tomonidan shaxsiga oid ma‘lumotlar berilmagan taqdirda, unga Qonunning 29-moddasiga asosan murojaati ko‘rib chiqilmasligi tushuntiriladi.

III. Yakunlovchi qoidalar

22. “Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlar bilan ishlovchi xodim murojaat qiluvchidan olingan ma‘lumotlarni maxfiyligiga rioya qilinishi uchun Qonun hujjatlariga muvofiq shaxsan javobgar bo‘ladi.

23. “Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlar hamda ularni qayd etish, ko‘rib chiqish bilan bog‘liq hujjatlar Devonxonada belgilangan tartibda saqlanadi.

24. “Ishonch telefoni” orqali ko‘rsatilgan xizmatdan qoniqish xosil qilinmaganida, murojaat qiluvchi Qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.